NATO
OTAN



# NATO NIMANI BILDIRADI

Bizning vebsaytimizga tashrif buyuring:
**www.nato.int**

Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti dunyodagi katta tashkilotlardan biri hisoblanadi. Bu siyosiy va harbiy ittifoqqa Yevropa va Shimoliy Amerikada joylashgan 30ta a'zo mamlakatlar kiradi.

Ushbu mamlakatlar xavfsizlik va mudofaa masalalari bo'yicha hamkorlik qilish uchun muzokaralar olib borishadi. Buning uchun NATO ushbu ikki qit'a orasida siyosiy va xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorlik o'rnatish uchun ajoyib imkon yaratgan.



## ODAMLAR HIMOYASI

Biz ko'pincha xavfsiz va iqtisodiy mustahkam atrof-muhitda erkin yurishimizni oddiy holat deb bilamiz. Kundalik hayotimizning har tomonlama xavfsizligi turmushimizning asosidir.

## HAMKORLIKNI MUSTAHKAMKASH

Muloqot va hamkorlikni o'rnatish uchun tinch munosabatlarni va xalqaro holatni chuqur tushunish muhim masaladir. A'zolar va hamkor mamlakatlarga xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatlar o'tkazish, ishonchli munosabatlarni qurish va kelajakda nizolarning oldini olish uchun NATO noyob imkon yaratdi. Amaliy hamkorlik va ko'p tomonlama tashabbuslar orqali mamlakatlar xavfsizlikning yangi muammolariga birgalikda qarshi chiqishmoqda.

## YANGI XAVF-XATARLAR BILAN KURASH

Xavf-xatar tabiati o'zgarib borayotganligi sababli, tinchlikni saqlash vositalari ham o'zgarishi kerak. NATO o'z mudofaa imkoniyatlarini bugungi kundagi xavf-xatarlarga qarshi yo'naltirmoqda. Terorrizmga qarshi kurash, kuchsiz davlatlar va ommaviy qirg'in qurollari kabi, boshqa xavfsizlik xatarlariga NATO o'zining harbiy kuchlarini muvofiqlashtirmoqda va ko'p millatli yondashuvlar rivojlantirmoqda.

## TINCHLIK VA BARQARORLIKNI QURISH

Barqarorlikning afzalliklaridan bir paytning o'zida ko'p tomonlar naf ko'rishi mumkin. Keskinlik xavfsizlik uchun xatar tug'diradigan mintaqalarda barqarorlikni o'rnatish juda muhimdir. Shuning uchun NATO tanglik xolatlarni bartaraf etish ishlarida boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda faol ishtirok etadi.



# NATO NIMA BILAN SHUG'ULLANADI?

NATO siyosiy va harbiy vositalar orqali o'z a'zolarini himoya qilishga majburiyat olgan. Shuningdek NATOga a'zo bo'lmagan mamlakatlar bilan keng doiradagi xavfsizlikka tegishli, mudofaa va tinchlikni saqlash kabi masalalar bo'yicha muzokara va hamkorlik qilishga ham chorlaydi. Muzokara va hamkorlik orqali NATO o'zining a'zo mamlakatlarning chegaralari va chegaralaridan tashqaridagi nizolarni oldini olishga o'z hissasini qo'shmoqda.

NATO demokratiya qadriyatlarini olg'a surishga va kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan bartaraf etishga o'z hissasini qo'shmoqda. Masala diplomatiya yo'llari bilan hal bo'lmasa NATO krizis sharoitlarni oldini olish va tinchlikni saqlash uchun o'zining harbiy kuchlarini yakka xolda yoki boshqa mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ishga soladi. Shuningdek NATOning uchinchi yo'nalishi ham bor. Bular quyidagilardan iboratdir: tezkor ijtimoiy rejalashtirish, Ittifoqdosh va Hamkorlarga tabiiy ofatlar bilan kurashishda yordam berish, shuningdek ilm-fan va tabiatni muhofaza qilish masalalarida hamkorlikni rivojlantirish.

# NATO QANDAY ISHLAYDI?

Har bir a'zo davlatning NATOning Brusseldagi Bosh ofislarida doimiy delegatsiyasi mavjud. Ushbu qarorgohni boshqaradigan elchi, Ittifoqning maslahat va qaror qabul qilish jarayonlarida o'z hukumati nomidan ishtirok etadi. Tashkilot ichida Shimoliy Atlantika Kengashi eng muhim siyosiy qarorlarni qabul qiladigan organdir. Bu har xil pog'onalarda mavjuddir va a'zolarga asosiy masalalar bo'yicha bitimga kelishishga NATO ning Bosh Kotibi boshchilik qiladi.

NATOning har bir qumitalaridagi hamma qarorlar konsensus yo'li bilan qabul qilinadi. Shuning uchun «NATO qarori» hamma a'zo mamlakatlarning kollektiv ixtiyoridir. NATO ning juda kam sonli doimiy qurolli kuchlari bor. Shimoliy Atlantika Kengashi operatsiyani muvofiqlashtirgandan so'ng a'zo mamlakatlar o'zining qurolli kuchlarini o'z hoxishiga qarab jo'natishadi. Bu kuchlar missiya tugagandan so'ng o'z mamlaktlariga qaytadilar.

Harbiy qo'mondonlik tuzilmaning roli muvofiqlashtirish va operatsiyani o'tkazishdir. Tuzilma qarorgox va har xil a'zo mamlakatlarda joylashgan bazalardan iboratdir. NATOning kundalik faoliyati, fuqaro va harbiy tuzilmalari va xavfsizlikni sarmoyalash dasturi umumiy byudjet orqali a'zo mamlakatlar bilan kelishilgan xolda qiymatlari bo'lingan formula asosida moliyalashtiriladi.



# A'ZO VA HAMKOR MAMLAKATLAR

**Shimoliy Atlantika Shartnomasini imzolaganlar, 1949 yili 4 aprel.**

### A'ZO MAMLAKATLAR (+ QABUL QILINGAN SANA)

- Albaniya - 2009
- Belgiya -1949
- Birlashgan Qirollik - 1949
- Bolgariya - 2004
- Daniya - 1949
- Estoniya - 2004
- Fransiya -1949
- Germaniya -1955
- Gollandiya - 1949
- Islandiya - 1949
- Ispaniya - 1982
- Italiya - 1949
- Kanada -1949
- Latviya - 2004
- Litva - 2004
- Lyuksemburg - 1949
- Montenegro - 2017
- Norvegiya - 1949
- Polsha - 1999
- Portugaliya - 1949
- Qo'shma Shtatlar - 1949
- Ruminiya - 2004
- Slovakiya - 2004
- Sloveniya - 2004
- Turkiya - 1952
- Vengriya - 1999
- Xorvatiya - 2009
- Yunoniston - 1952
- Shimoliy Makedoniya - 2020
- Chexiya Respublikasi - 1999

### TINCHLIK UCHUN HAMKORLIK" (TUH) DASTURIGA QO'SHILGAN MAMLAKATLAR

- Armaniston
- Avstriya
- Belorussiya
- Bosniya va Gertsegovina
- Finlyandiya
- Gruziya
- Irlandiya
- Malta
- Moldova
- Ozarbayjon
- Qirg'izston Respublikasi
- Qozog'iston
- Rossiya
- Serbiya
- Shvetsiya
- Shveytsariya
- Tojikiston
- Turkmaniston
- Ukraina
- O'zbekiston

### O'RTA YER DENGIZI MULOQOT HAMKORLARI

- Iordaniya
- Isroil
- Jazoir
- Marokash
- Mavritaniya
- Misr
- Tunis

### STAMBUL HAMKORLIK TASHABBUSIGA (SHT) QO'SHILGAN MAMLAKATLAR

- Bahrayn
- Birlashgan Arab Amirliklari
- Qatar
- Quvayt

### DUNYODAGI HAMKORLAR

- Afg'oniston
- Avstraliya
- Iroq
- Kolumbiya
- Koreya Respublikasi
- Mongoliya
- Pokiston
- Yangi Zelandiya
- Yaponiya

0351-20 © NATO 2020 - UZB